

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

**NamMQI**  
O'quv-uslubiy boshqarma  
№ 161  
«3» 07 2024 y.



XORRAJY INVESTITSIYALAR kompaniyasining  
ISHCHI O'QUV DASTURI

**Bilim sohalari:** 400 000 - Biznes, boshqaruv va xuquq  
**Ta'lim sohalari:** 410 000 - Biznes va boshqaruv  
**Ta'lim yo'nalishlari:** 60411600 - Korporativ boshqaruv

Fan/modul kodi X16	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 7
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 28=14m+14a	Mustaqil ta'lim (soat) 152	Jami yuklama (soat) 180
1.	Xorijiy investitsiyalar		
2.	<p><b>1. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda investitsiya faoliyati, xorijiy investitsiyalar, ularning turlari, investitsiya siyosati va uni boshqarish, xorijiy investitsiyalar xaqida tushuncha va uning moxiyati, xorijiy investitsiyalarning shakl va turlari, investitsiya jarayonlari, xorijiy investorlar xuquqiy xolati, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy - uslubiy asoslari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – investitsiya jarayonining asosiy kategoriyalari uning moxiyati, jaxon bozorining investitsiya jarayoniga ta'sirini aniqlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tamoyillari, asosiy bosqichlari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish, investitsiya faoliyatini axborot bilan ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmi va asosiy yo'nalishlari, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash kabilarni o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>Ta'lim berish natijalari</b></p> <p>“Xorijiy investitsiyalar” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• xorijiy investitsiyalar tamoyillarini, xorijiy investitsiyalarni boshqarishni, investitsiyalarni, investitsiya faoliyatini, investitsiya bozorini bilishi kerak;</li> <li>• xorijiy investitsiyalar faoliyatini tashkil etish, chet el tajribalaridan Yaponiya, AQH va boshqa rivojlangan davlatlar olimlari va menejerlari tomonidan yaratilgan nazariyalarni chuqur egallash, investitsiyalarni loyixalash va boshqarish, ilmiy fan taraqqiyoti asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</li> <li>• korxonada faoliyatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga investitsiyaning ta'sirini belgilash, investitsiya loyixalarni ishlab chiqish va qo'llash, investitsiyalarni samarali yo'naltirish xaqida malakalarga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>		

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
<p><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>*1-Mavzu: Xorijiy investitsiyalar haqida tushuncha va uning mohiyati</b> Investitsiya tushunchasi. Xorijiy investitsiyalarning mohiyati va mazmuni. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xorijiy investitsiyalarni foydalanish istiqbollari. Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqi. Xorijiy sheriklar. Xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish.</p> <p><b>2-mavzu: Xorijiy investitsiyalarning shakl va turlari</b> Xorijiy investitsiyalarni shakllari. Xorijiy investitsiyalarni turlari. Investitsiya faoliyatiga tegishli xuquqiy munosabatlarining ob'ekti va sub'ekti. Mulkiylik shakllari. Qo'shma korxonalar. Xorijiy korxonalar. Mahsulotlarni bo'lishish bo'yicha kelishuv.</p> <p><b>*3-Mavzu: Globallashuv hamda iqtisodiy integratsiyalashuvning kuchayib borishida investitsiya jarayonlari</b> Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida investitsiya jarayonlari. Investitsiya jarayonining asosiy kategoriyalarining tasnifi va iqtisodiy mohiyati. Globallashuv va iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlari. Turli iqtisodiy tizimlarda investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p><b>*4-Mavzu: Xorijiy investorlar huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari</b> Xorijiy investor huquqi, huquqiy maqom. Xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar. Xalqaro huquq. Davlat immuniteti. Investitsiya munosabatlari qatnashchilarining huquqiy holati. Xorijiy investorlarni huquqiy himoya qilish. Xorijiy investorlarga davlat tomonidan kafolatlarining berilishi. Xorijiy investitsiyalarga doir O'zbekiston Respublikasi va MDX davlatlarining qonunchiligi.</p> <p><b>5-Mavzu: Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy - uslubiy asoslari</b> Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish konsepsiyasi. Erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tamoyillari. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish strategiyasi.</p> <p><b>*6-mavzu: Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari</b> Jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning tarkibiy tuzilishi. Bevosita va portfel investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish. Qo'shma korxonalar va chet-el korxonalari. Investitsiya loyixalari va ularni baholash. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish.</p> <p><b>*7-Mavzu: Xorijiy investorlar uchun O'zbekiston iqtisodiyotini jalb</b></p>

**qiluvchanligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.**

Tashqi kapital. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining strategiyasi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish. Xorijiy kapitalni jalb qilishning huquqiy asoslari. Eksporga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish. Tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim strategik yo'nalishlari. Qo'shma tadbirkorlik. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xorijiy investorlar uchun qulay va soddagina moliya-kredit tizimlarini tashkil etish.

**\*8-mavzu: O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni xorijiy investitsiyalar yordamida rivojlantirish masalalari**

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarilishi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish yo'nalishlari. Milliy iqtisodiyot manfaatlarini Tashqi savdo. Xalqaro transport yo'laklari. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalarini tashkil etish tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida. Tashqi iqtisodiy faoliyatda marketing.

**9-Mavzu: Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash va tavakkalchilik**

Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning mohiyati. Sug'urta himoyasi va huquqi. Xorijiy investitsiyalarni siyosiy va boshqa xavf-xatarlardan sug'urtalash. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar. Kapital eksportini sug'urtalashning asosiy turlari. Ichki va tashqi tavakkalchilik. Tavakkalchilikni hisoblash usullari. Xorijiy investitsiyalarga doir kelishmovchiliklar. Xalqaro tijorat arbitraji.

**\*10-Mavzu: Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash**

Kapital qo'yilmalarini iqtisodiy samaradorligi. Umumiy iqtisodiy samaradorlik. Xorijiy investitsiyalarni samaradorligini aniqlashning asosiy yo'nalishlari: ijtimoiy va iqtisodiy. Xorijiy investitsiyalarni samaradorligini aniqlashda foydalaniladigan umumiy ko'rsatkichlar.

**11-Mavzu: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish**

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati. Kichik va xususiy biznesni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy muassasalar bilan hamkorlik. Tadbirkorlarning vaqut va manfaatlarini himoya qilish mexanizmi. Kichik va xususiy biznes sub'ektlarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash.

**12-mavzu. Korxonalarda investitsiyalarni rivojlanishida bilimlar iqtisodiyoti**

Investitsiya salohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar. Inson kapitali va uni sakmarali boshqarish jihatlari. Bilimlar iqtisodiyotini shakllanishda kichik biznes sub'ektlarini investitsion boshqarish. Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda inson

kapitalini o'rni. Mamlakatda investitsiyalarni rivojlantirish yo'llari.

**\*13-mavzu. Intellektual mulk va uni boshqarishning tashkiliy-xuquqiy jihatlari**

Intellektual mulk tushunchasi va uning mohiyati. Intellektual mulk ob'ektlari va ularni samarali boshqarish. Intellektual mulkni huquqiy himoya qilish asoslari. Intellektual mulkni baholash tizimi. Butunjaxon Intellektual mulk tashkiloti va uning innovatsion jarayonlarga ta'siri.

**14-Mavzu. Investitsiya faoliyatini tashkil etish**  
Turli mulk shakllariga asoslangan korxonalarda investitsiya faoliyatini tashkil etish. Investitsiya faoliyatini tashkiliy shakllari. Korxonalarining investitsion salohiyati. Investitsion markazlar. Investitsion infratuzilma.

**\*15- Mavzu. Investitsion infratuzilmani tashkil etish va boshqarish**  
Investitsion iqtisodiyotni rivojlantirishda menejmentning ahamiyati. Texnoparklar va ularni tashkil etish mexanizmlari. Yuqori innovatsion-texnologik markazlarni boshqarishning o'ziga xos jihatlari. Texnopolislar. Texnologiyalar transferi markazlari.

**\*16-mavzu. Investitsion faoliyatning tashkiliy strategiyasi**  
Rivojlanishning tayanch strategiyasi. Intensiv o'sish strategiyasi. Integral o'sish strategiyasi. Diversifikatsiyalashgan o'sish strategiyasi.

**17-mavzu. Investitsion o'sish strategiyasi**  
Investitsion o'sish strategiyasi. Himoyalash strategiyasi. Optimal va past xarajalar strategiyasi. Tadbirkorlikning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.

**"Xorijiy investitsiya" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining kalendar tematik rejasini**

No	Ma'ruza mavzulari	Ajratilgan soat
1	Xorijiy investitsiyalarning shakli va turlari	2
2	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy - ustubiy asoslari	2
3	Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash va tavakkalchilik	2
4	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish	2
5	Korxonalarda investitsiyalarni rivojlanishida bilimlar iqtisodiyoti	2
6	Investitsiya faoliyatini tashkil etish	2
7	Investitsion o'sish strategiyasi	2
	<b>Jami</b>	<b>14</b>

**Izoh:** Yuqorida yulduzcha (\*) bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan auditoriyada o'tiriladigan ma'ruza mashg'ulot mavzularidan tashqari mavzularni asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda nazorat topshirig'i sifatida mustaqil o'zlashtiriladi.

**II. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

- \*1. Xorijiy investitsiyalar haqida tushuncha va uning mohiyati.
- \*2. Xorijiy investitsiyalarning shakli va turlari.
- \*3. Globallashuv hamda iqtisodiy integratsiyalashuvning kuchayib borishida investitsiya jarayonlari.
- \*4. Xorijiy investorlar xuquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari.
- \*5. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy - uslubiy asoslari.
- \*6. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishning zamonaviy shakli va usullari.
- \*7. Xorijiy investorlar uchun O'zbekiston iqtisodiyotini jalb qiluvchanligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.
- \*8. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni xorijiy investitsiyalar yordamida rivojlantirish masalalari.
- \*9. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash va tavakkalchilik.
- \*10. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.
- \*11. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish.
- \*12. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish
- \*13. Intelektual mulk va uni boshqarishning tashkiliy-xuquqiy jihatlari
- \*14. Korxonalarda investitsiyalarni rivojlantirishda bilimlar iqtisodiyoti
- \*15. Investitsiya faoliyatni tashkil etish
- \*16. Investitsion infratuzilmani tashkil etish va boshqarish
- \*17. Investitsion faoliyatning tashkiliy strategiyasi
- \*18. Investitsion o'sish strategiyasi
- \*19. Investitsion strategiyaning mohiyati, uni korxonaning umumiy strategiyasi bilan aloqasi
- \*20. Investitsiyalarning rivojlanish strategiyasi
- \*21. Investitsion faoliyatni moliyalashtirish

**“Xorijiy investitsiya” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotining kalendar tematik rejas**

No	amaliy mashg'ulotining mavzulari	Ajratilgan soat
1	Xorijiy investitsiyalarning shakli va turlari	2
2	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy - uslubiy asoslari	2
3	Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash va tavakkalchilik	2

4	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish	2
5	Korxonalarda investitsiyalarni rivojlantirishda bilimlar iqtisodiyoti	2
6	Investitsiya faoliyatini tashkil etish	2
7	Investitsion o'sish strategiyasi	2
<b>Jami</b>		<b>14</b>

**Izoh:** Yuqorida yulduzcha (\*)) bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan auditoriyada bajariladigan amaliy mashg'ulotlaridan tashqari mavzularni, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun berilgan uslubiy ko'rsatmadan foydalangan holda nazorat topshirig'i sifatida mustaqil o'zlashtiriladi.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Korxonalarda investitsiya faoliyatining davriy dinamik o'sishini tahlil qilish.
2. Investitsion omillarning raqamli biznes boshqaruvidagi o'rni va ahamiyatining tahlili.
3. Investitsiya jarayonlarini boshqarish strategiyasini tadqiq etish va joylashtirish.
4. Investitsion faoliyat iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tahlil qilish. (Taqdimot ko'rinishida topshiriladi).
5. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash muammolarini tahlil qilish.
6. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish strategiyasini ishlab chiqish. (Taqdimot ko'rinishida topshiriladi)
7. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning strategik va taktik usullarini o'rganib chiqish va taqdimot ko'rinishida topshirish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**V. Ta'lim natijalari/ Kasbiy kompetensiyalari**

**Talaba bilishi kerak:**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Xorijiy investitsiyalar, tadbirkorlikning investitsion faoliyati, investitsion tadbirkorlik tushunchalari, mazmun va mohiyatini, investitsion menejmentni tashkil qilish usullarini, investitsiya jarayoni, investitsiya jarayonini boshqarish, fan va investitsiya jarayonining aloqadorligini **bilishi kerak**;

- investitsiya jarayonini boshqarish; investitsiya faoliyatini iqtisodiy

<p>samaradorligini baholash; investitsion faoliyatning tashkiliy strategiyasini ishlab chiqish; investitsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish; investitsion loyihalarni baholash; tadbirkorlikda investitsion loyihalar xavf-xatarini boshqarish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari. investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>ijodiy vazifa;</li> <li>Ta'limning faol metodlari;</li> <li>insho yozish;</li> <li>tahliliy hisobot taqdimoti;</li> <li>taqdimotning video / slaydlar tayyorlash;</li> <li>nashrlarni tayyorlash;</li> <li>bilts-savolnoma;</li> <li>debatlar va munozaralar;</li> <li>mulohaza va nazorat uchun savollar;</li> <li>amaliy topshiriq;</li> <li>krossvordlar;</li> <li>turli darajadagi testlarni echish.</li> </ul>
<p><b>5.</b></p> <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fandan talabalarini bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. "Oliy ta'lim muassasalarini talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida" gi Nizom asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalari to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.</p> <p><b>Talabani bilimni baholash mezonlari</b></p> <p>Xorijiy investitsiyalar fanidan talabalarni baholashda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.</p> <p>Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlardagi mavzularga qarab oladi. Talabalarining nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plangan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi.</p> <p><b>OB=A.M.+ M.T+N.T./3</b></p> <p>Bu yerda: OB-oraliq baholash; A.M-Auditoriyada berilgan amaliy mashg'ulotlarni bajarishi MT- Berilgan mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi. N.T-Nazorat topshiriqlari talabani auditoriyadan tashqari</p>	

<p>ko'rsatilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzulari bo'yicha og'zaki savol javob orqali baholanadi.</p> <p>Oraliq baholash bandlarining har biri kamida 60% holatda o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa o'lashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.</p> <p>OB≥60%</p> <p>Yakuniy nazorat tarkibi: auditoriya mavzulari (50%) va mustaqil ta'lim mavzusiga (50%) oid test topshirig'i.</p> <p>Yakuniy nazoratda ham kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar 60% dan kam bo'lsa, yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi.</p> <p>Ya.N≥60%</p> <p>Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi, hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p>	<p><b>6.</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi Qonuni, O'RQ. -2019 y 25 dekabr.</li> <li>A.O'lmasov, A.V. Vahobov Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2014. – 480 bet.</li> <li>V.Vaxabov, Sh.X Xajibakiyev, N.G. Muminov Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: "Moliya", 2010.-B 303</li> <li>A.Sh.Bekmurodov, Yo.K. Korieva va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O'quv kullanma. - T.: TDIU, 2011. - 196 b.</li> <li>Yo .Karrieva, E.Kamalova, N.Ochilova, G. Abdulkimov Innostrannye investitsii. Uchebnoe posobie. - T.: TGEU. 2011. - 250 s.</li> <li>B. S.Mamatov, O. Sh. Nurbekov Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik.- T.: Iqtisod-Moliya, 2014</li> <li>Mihaela Peres, Waqar Ameer &amp; Helian Xu (2018) The impact of institutional quality on foreign direct investment inflows: evidence for developed and developing countries, Economic Research-Ekonomika Istraživanja, 31:1, 626- 644</li> <li>N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2014.</li> <li>A. Paul Samuelson, D. William Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies, USA, 2009.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>A.A. Abduvaliyev Raqamli iqtisodiyot: tendentsiyalar va istiqbolalar (Monografiya) – T.: «Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi». 2020. -</li> </ol>
---	---

190 b.	<p>2. A.Sh. Bekmuradov, A.A. Musaliyev, Sh.I. Xashimxodjayev "Axborot biznesi": O'quv qo'llanma. – T.: «QTISODIYOY», 2019. – 160 b.</p> <p>3. S. Rahmonqulova Tadbirkorlar uchun on-layn interaktiv xizmatlar, Internetning virtual imkoniyatlaridan biznesda qanday qilib, unumli foydalanish mumkin. Qo'llanma. Toshkent, infoCOM.UZ, 2015, 176 bet.</p> <p>4. Управление бизнесом в цифровой экономике: вызовы и решения / под ред. И.А.Аренкова, Т.А.Лезиной, М.К.Сенжарик, Е.Г.Черновой. — СПб.: Изд-во С.-Петербурга, ун-та, 2019. — 360 с.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>1. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a>  2. <a href="http://www.mygov.uz">www.mygov.uz</a>  3. <a href="http://www.fobirdarcha.uz">www.fobirdarcha.uz</a>  4. <a href="http://www.milit.uz">www.milit.uz</a>  5. <a href="http://www.sez.gov.uz">www.sez.gov.uz</a>  6. <a href="http://www.invest.gov.uz">www.invest.gov.uz</a></p>
7.	<p>Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ul:</b>  S.Alabayev NamMQI, "Menejment" kafedrasida kata o'qituvchisi  M.Jalolova NamMQI "Menejment" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  A. Yuldashev - NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, i.f.n.  Z. Ikramov - O'zbekiston Respublikasi Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish Davlat qumitasi Namangan viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i</p>